



KATTALAR TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY VOSITALAR VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xidirova Maloxat Qazaqovna,

Guliston davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasida p.f.f.d. (PhD) dotsent

Azamatova Odina Ikrom qizi,

*Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
E-mail: sayidqulovaodina@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18479349>

Annotatsiya. Maqolada bugungi raqamli transformatsiya sharoitida kattalar ta'limi jamiyat rivojining muhim omillaridan ekanligi, kattalar ta'limida nafaqat kasbiy malakani oshirish, balki shaxsiy rivojlanish, zamonaviy kasblarni o'rganishga qaratilgan samarali usullarni raqamli muhitda qo'llanilayotgani tahlil qilinadi. Unda kattalar ta'limiga oid qonun va farmonlar, andragogika fanining ahamiyati, shuningdek, katta yoshdagi shaxslarni o'qitishda zamonaviy vositalardan foydalanishning yutuqlari haqida tadqiqot olimlarining fikrlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: andragogika, davlat dasturi, kattalar ta'limi, inkluziv ta'lim, kreativ fikr, raqamli ta'lim, qonun, texnologiya, mustaqil ta'lim, texnika, uzluksiz ta'lim.

Аннотация. В статье анализируется эффективное развитие образования взрослых в результате процессов цифровизации в современной системе образования. В ней освещаются законы и указы, касающиеся образования взрослых, значение науки андрагогии, а также принципы, применяемые в обучении пожилых людей, и взгляды ученых в этой области.

Ключевые слова: андрагогия, государственная программа, образование взрослых, инклюзивное образование, креативное мышление, цифровое обучение, право, технологии, самостоятельное обучение, инженерно-технические навыки, обучение на протяжении всей жизни.

Annotation. The article analyzes the effective development of adult education resulting from the digitalization processes in today's education system. It highlights laws and decrees related to adult education, the significance of the science of andragogy, as well as the principles applied in teaching older adults and the views of scholars in this field.

Key words: andragogy, state program, adult education, inclusive education, creative thinking, digital learning, law, technology, independent learning, engineering/technical skills, lifelong learning.

KIRISH

O'zbekiston faqat ta'limni rivojlantirib hamda, eng muhimi, bunga aholining barcha qatlamlarini jalb qilib yuksak marralarga erishishi mumkin. Ammo uzoq vaqt mobaynida ta'lim sohasidagi qonunchilik mukammal bo'lmagan. 2020-yil 23-sentyabr kuni «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri Prezident tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Mazkur Qonunda ilk bor ta'lim xizmatlarini sezilarli darajada kengaytirishga asos bo'ladigan ta'lim olishning turli shakllarining ta'rifi



berilgan. Ular orasida «oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish», «inklyuziv ta'lim», «katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish» oxirgi atama rasmiy, norasmiy va informal ta'limni o'z ichiga oladi. Natijada katta yoshdagilar butun hayoti davomida bilimlarini kengaytiradi, ko'nikma va malakalarini boyitadi va talab etiladigan kasbni egallaydi. Ilgari men kattalar uchun ta'lim va ta'lim sohasini rivojlantirishning ahamiyati haqida yozgan edim, bu masala bugungi kunda muhim hayotiy ahamiyatga ega. Shu sababli 2020-yilgi Davlat dasturida butun mamlakat bo'ylab «Ishga marhamat» mono-markazlari va kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etish vazifalari belgilangan. Mazkur markazlarda ishsizlar va kambag'al oilalar a'zolari tadbirkorlik va kasbga o'qitiladi, shuningdek, band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish, kasb-hunarga o'qitish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha o'qitish va tadbirkorlikka jalb qilish, fuqarolarga psixologik va yuridik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida ham faoliyat olib boradi. Dastur beshta tashabbus doirasida raqamli texnologiyalar markazlarini, yoshlar va IT-parklarni yaratishni ham nazarda tutadi. O'zbekistonda ham kattalar ta'limining pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy va yuridik asoslari shakllantirilgan. Jumladan, 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4732-sonli Prezident Farmonining qabul qilinishi ham mazkur sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ifodasidir.

Andragogikaning asosiy pozitsiyasi, an'anaviy pedagogikadan farqli o'laroq, o'quv jarayonida yetakchi rolni o'qituvchi emas, balki o'quvchi bajaradi. Andragogika ma'ruza o'rniga asosan amaliy mashg'ulotlarni (munozaralar, biznes o'yinlarini) ta'minlaydi. O'quv faoliyati bilan shug'ullanadigan katta yoshli o'quvchilar yangi, ko'pincha unutilgan talaba rovida harakat qilishadi, ammo bu rol avvalgisidan sezilarli darajada farq qiladi. Asosiy farq shundaki, o'rganish motivlari keskin o'zgarib bormoqda, chunki bilim endi hayot rejalariga, muvaffaqiyatga erishish va ijtimoiy mavqeni aniqlash vositasi sifatida qaraladi. Talabalar o'z yutuqlari natijalarini baholash imkoniyatiga ega. Bilish jarayoni ongli ravishda, mazmunli amalga oshiriladi va bundan tashqari, o'quvchilar o'z yutuqlari natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar¹.

Bugun dunyoda katta yoshlarni o'qitish masalasi va kasbiy qayta tayyorlash, qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni istovchi katta yoshlilarni qo'llab-quvvatlash va ularga sharoit yaratib berishga qaratilgan davlat yoki xalqaro miqyosda ham faoliyat yurituvchi ta'lim markazlari, institutlar mavjud. Jumladan, UNESCO ta'lim instituti (Gamburg), Xalqaro ta'limni rejalashtirish instituti (Parij), Xalqaro ta'lim instituti (AQSh), Shveysariya kattalar ta'limi tashkiloti, Kattalar ta'limining milliy instituti (Buyuk Britaniya), Xalqaro pedagogik

¹ file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/13.Mahalliy%20konferensiya.%20GulDU.pdf



tadqiqotlar instituti (Germaniya) shular jumlasidandir. Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, katta yoshlar ta'limi jarayonining o'ziga xos jihatlaridan biri o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o'z o'rnini topishga qaratilganligining anglanishi, maqsadning aniqligi, o'qishga bo'lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan tavsiflanadi. Bu esa ta'lim jarayonida o'ziga xos differensial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar hamda o'qitish texnologiyalarini talab etadi.

Andragogika sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- aholi turli qatlamlarining yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, kasbiy tayyorgarlik darajasi, sog'ligini hisobga olgan holda ta'limiy ehtiyojlarni o'rganish;

- kattalar ta'limiy faoliyatini (kasbiy ta'lim, mustaqil ta'lim, madaniy-estetik faoliyati, ma'naviy yuksalish) shakl va funkstiyalarini o'rganish va modellashtirish;

- kattalarga ta'lim berish tizimining mazmun-maqсадli, texnologik va kadrlar ta'minotini ishlab chiqish².

Elektron darsliklar hozirda maktablar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Elektron darslikka berilgan ta'riflar ko'p. Masalan, elektron darslik — bu raqamli matn, nutq, grafika, musiqa, fotosuratlar, videolar va boshqa axborotlarni, shuningdek foydalanuvchi tomonidan chop etilishi mumkin bo'lgan hujjatlarni o'z ichiga olgan elektron o'quv nashridir. Multimedia darsliklarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi hamda ularning an'anaviy darsliklarga nisbatan afzalliklari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. O'qituvchilar uchun yana bir muhim afzallik shundaki, elektron darsliklarni belgilangan ro'yxatdan o'tkazish qoidalariga muvofiq nashr etish va qayta chop etish ancha osondir³.

Kattalar odatda kunduzgi o'qish imkoniga ega bo'lmaydilar. Shuning uchun ishlovchi fuqarolarga kechki, sirtqi, masofaviy ta'lim yoki xorijda o'qish imkoniyatlari taklif etiladi. Kattalar jamiyatning ijtimoiy, ishlab chiqarish, oilaviy-maishiy qatlamlarida amaliy rivojlanishi butun dunyoda zamonaviy ta'limning asosiy vazifasiga aylandi. Rivojlangan mamlakatlarda katta yoshdagilar ta'limi aholining 20–80 foizini qamrab oladi. So'nggi yillarda ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar — nafaqaxo'rlar, ishsizlar, ayollar, nogironlar orasida ham o'qiyotganlar soni ortmoqda. Sifat jihatidan esa uzluksiz ta'lim, bepul ta'lim, masofaviy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kabi tushunchalar shakllandi va rivojlanmoqda. Katta yoshdagilar ta'limida turli shakllar va metodlar qo'llanadi: uzluksiz ta'lim, tuzatish (korreksion) ta'limi, aralash ta'lim, dam olish kunlari kurslari va boshqalar.

² 12.Mahalliy-xalqaro konferensiya.pdf

³ Elmurzayevich, Mamarajabov O. "Cloud Technology to Ensure the Protection of Fundamental Methods and Use of Information." International Journal on Integrated Education, vol. 3, no. 10, 2020, pp. 313-315, doi:10.31149/ijie.v3i10.780.2. Хайтуллаева.



Shuningdek, kattalarning turli ehtiyojlariga mos keladigan fuqarolik ta'limi, ekologik ta'lim kabi yangi mazmundagi dasturlar yaratilib, muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Kattalar ko'pincha o'qishdagi o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik, savodsizlik yoki o'qishni bilmaslik ochilib qolishidan qo'rqishadi. Bunday psixologik to'siqlar ularning motivatsiyasiga ta'sir qiladi. Shu sababli, kattalar ta'limini tashkil etishda shaxsiy, fiziologik, psixologik, ijtimoiy va professional xususiyatlarni o'rganish zarur. Har bir o'rganuvchi o'zining psixofiziologik va individual xususiyatlariga ko'ra ma'lumotni turlicha qabul qiladi. Shuning uchun ta'lim boshlanishidan oldin o'rganuvchining funksional savodxonligini aniqlash muhimdir. Moskvadagi sotsiologlar ma'lumotiga ko'ra, so'nggi 100 yilda zarur bilim hajmi 100 baravar oshgan, axborot uzatish tezligi esa 10 million baravar tezlashgan.

Hayot tinmay o'zgaradi, shuning uchun uzluksiz o'rganish zamonaviy inson uchun zaruratdir. Shu sababli rivojlangan davlatlarda katta yoshdagilar ta'limiga katta byudjet mablag'lari ajratiladi. Hatto uning qiymati oliy ta'limga ajratiladigan mablag'larga tenglashadi. Masalan, amerikalik mutaxassislar katta yoshdagilarni qo'shimcha o'qitish mamlakat iqtisodiy o'sishining 40 foizini ta'minlashini ta'kidlaydi. Raqamli texnologiyalar ko'plab tashkilotlarda treninglar, kattalar o'qitish va inson resurslarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli muhitlarning kengayib borishi o'quv materiallariga moslashuvchan, istalgan paytda va istalgan joyda kirish imkonini beradi. Masalan, xodimlar trening tizimlari va vebinarlar orqali o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantira oladilar. Katta yoshdagilar ta'limining asosiy xususiyati — o'z ta'lim jarayonini boshqarishdagi o'rganuvchining roli ortib borishidir. U o'z maqsadini angelaydi, olgan bilim va ko'nikmalarni real hayotda qanday qo'llashni tushunadi. Kattalar ta'limi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u shaxsning butun hayoti davomida uzluksiz bilim va ko'nikmalarni egallashiga xizmat qiladi. Kattalar ta'limi an'anaviy maktab yoki oliy ta'lim tizimidan o'zining psixologik, ijtimoiy va pedagogik xususiyatlari bilan farqlanadi. Ushbu ta'lim turi pedagogika fanida "andragogika" tushunchasi bilan izohlanadi.

Andragogika kattalarni o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganib, ta'lim jarayonida ularning ehtiyojlari, tajribasi va mustaqilligini inobatga olishni talab etadi. Kattalar ta'limining asosiy o'ziga xos jihatlaridan biri bu o'rganuvchilarning ongli va aniq motivatsiyaga ega ekanligidir. Kattalar bilim olishga ko'pincha kasbiy ehtiyoj, ijtimoiy moslashuv, lavozimda o'sish yoki shaxsiy rivojlanish maqsadida kirishadilar. Shu sababli ular o'rganilayotgan bilimning amaliy ahamiyatiga katta e'tibor qaratadilar. Agar ta'lim mazmuni real hayot va kasbiy faoliyat bilan bog'lanmasa, o'rganishga bo'lgan qiziqish susayadi. Bu holat kattalar ta'limida muammoli va amaliy yo'naltirilgan metodlardan foydalanishni taqozo etadi.



Kattalar ta'limining yana bir muhim jihati ularning mustaqil o'rganishga moyilligidir. Katta yoshdagi o'rganuvchilar o'zini shaxs sifatida anglagan bo'lib, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishni, qarorlar qabul qilishni va o'z fikrini erkin bildirishni istaydilar. Shu bois, kattalar ta'limida o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki maslahatchi, yo'naltiruvchi va hamkor rolini bajaradi. Bu esa ta'lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirishga olib keladi. Kattalar o'rganish jarayonida o'zlarining hayotiy va kasbiy tajribalariga tayangan holda bilimlarni qabul qiladilar. Ushbu tajriba ta'lim jarayonida muhim resurs hisoblanadi. Ta'lim mazmuni o'rganuvchilarning mavjud bilim va tajribasi bilan uyg'unlashganda samaradorlik ortadi. Shu sababli muhokama, keys-stadi, trening, loyiha asosida o'qitish kabi interaktiv metodlar kattalar ta'limida keng qo'llaniladi. Bunday metodlar bilimlarni chuqurroq anglash va amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Psixologik jihatdan kattalar ta'limida o'rganish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, qisqa muddatda natijaga erishish istagi ustun bo'ladi. Kattalar uzoq davom etadigan nazariy mashg'ulotlardan ko'ra, aniq natija beradigan, tezkor va moslashuvchan ta'lim shakllarini afzal ko'radilar. Shu bois masofaviy ta'lim, modul asosida o'qitish, aralash ta'lim (blended learning) kabi zamonaviy yondashuvlar kattalar ta'limida samarali hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kattalar ta'limi butun dunyo ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy metodlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida natija berib, kattalar o'rtasida uzluksiz rivojlanish, doimiy o'z ustida ishlash va tajribalarni bo'lishib borish kabi tamoyillar bilan samara bermoqda. kattalar ta'limining o'ziga xos jihatlari ularning mustaqilligi, motivatsiyasi, tajribaga tayanishi va amaliy natijaga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat bilim sifati, balki o'rganuvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yurtimizda ham olib borilayotgan islohotlar aynan kattalar ta'limini o'sayotganini, dissertatsiya, tadqiqot, ilmiy ishlar va bir qator olimlarning maqolalaridan ham andragogika fanining qay darajada muhimligini isboti bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R., Mirsoliyeva M.T., O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. – 60 b.
2. Kolesnikova I.A. Osnovy androgogiki. M.: Akademiya, 2007. – 120 s.
3. Zmeev S.I. Osnovy androgogiki: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: Flinta: Nauka, 1999. – 150 s.
4. Bazarova G. Kattalarni o'qitishning psixologik xususiyatlari. Ilmiy maqola, 2024.
5. Nimatova M., Beshimova M. Kattalar ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari. Ilmiy tadqiqotlar to'plami.



6. Folk High School in Europe – an important part of free adult education and personal growing. Kaunas, 2003.
7. Hayden M. “Professional Development of Educators: The International Education Context”. The SAGE Handbook of Research in International Education. 2007. SAGE Publications.
8. Elmurzayevich, Mamarajabov O. "Cloud Technology to Ensure the Protection of Fundamental Methods and Use of Information." International Journal on Integrated Education, vol. 3, no. 10, 2020, pp. 313-315, doi:10.31149/ijie.v3i10.780.2. Хайтуллаева.
9. www.education.unesco.org
10. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/13.Mahalliy%20konferensiya.%20GulDU.pdf
11. 12.Mahalliy-xalqaro konferensiya.pdf

